

Sh.Rashidov nomidagi SamDU Inson resurslarini boshqarish fakulteti
Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasida dotsenti, ma'sul I.X.Nasimov tomonidan
tuzilgan "Mikroiqtisodiyot" fan dasturiga

TAQRIZ

Ushbu fan dasturi o'quv rejaga mos ravishda tuzilgan bo'lib unda qaysi mavzularni auditoriyada va qaysi mavzularni mustaqil ta'lim shaklida o'tish batafsil yoritib berilgan. Ma'ro'za va amaliy darslarda mikroiqtisodiy ta'limning kelib chiqish tarixi fanining predmeti va vazifalari o'rganish usullari batafsil o'rganib chiqish lozimligi ko'rsatilgan.



Talabalarga mikroiqtisodiyotning mohiyati va mazmuni, nazariy asoslari, mikroiqtisodiyotning asosiy tushunchalari va kategoriyalari, rejalashtirish, tahlil etish to'g'risida tegishli tasavvurga ega bo'lishlari lozim. O'qituvchining dars jarayonidagi asosiy vazifasi talabanning o'qish jarayonidagi o'zlashtirish qobiliyatini oshirish, talabada mikroiqtisodiyot fani yuzasidan umumiy tasavvur va ta'lim iqtisodiy bilimlar bazasiga ega bo'lishlari, sohalarga oid sodda amaliy masalalar uchun xisoblash modellari tuzish, keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimidan keng foydalanishni ham nazariy, ham amaliy tomonlarini iqtisodiyot sub'ektlarning faoliyatini o'rganish usullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga amaliy yordam beradi.

"Mikroiqtisodiyot" fanini o'rganishda qo'llaniladigan ilg'or ta'lim texnologiyalarni va metodlarini qo'llagan holda, o'quv jarayonlarini to'konnillashirish nazarda tutilgan. Talabanning ushbu fanni mukammal o'rganib olish uchun qo'yilgan talablar ushbu dasturda o'z aksini topgan.

Fanni o'zlashtirish jarayonidagi zarur bo'lgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ham keltirilgan. Ayrim mavzularni o'rganish jarayonida kafedra a'zolarining metodik, me'yoriy hujjatlari va qo'llanmalar foydalanish uchun tavsiya etilgan. SHu bilan birga, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan ohirgi qonun-qoidalar, axborot manbalari (saytlar) tavsiya etilgan.

Xulosa qilib aytganda, "Mikroiqtisodiyot" fanidan tuzilgan fan dasturi kafedrada muhokama qilingan ichki taqriz mavjud, fakultetning o'quv uslubiy kengashida muhokama qilinib o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya etiladi.

SamISI dotsenti I.X. Nasimov Sultonov Sh.A.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIVY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND

DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:

№ BD - 60410600 - 900-11000
2024-yil "10" 15

"TASDIQLAYMAN"

SamDU rektori:

R.I.Xalmuradov

2024-yil " " "

MIKROIQTISODIYOT

FAN DASTURI

Kunduzgi bo'lim uchun

Bilim sohasi:	400000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410000 – Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	60410600 – Bank ishi 60410900 – Biznesni boshqarish 60411000 – Inson resurslarini boshqarish

SAMARQAND – 2024

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
M1KIQ1305	2025-2026	III	5
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari	
Majburiy	O'zbek	4	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Jami: (soat)
	Mikroiqtisodiyot	64	150
		60	150

Fanning maqsadi (FM)	
I. FANNING MAZMUNI	
FM1	Fanni o'qitishdan maqsad – Mikroiqtisodiyot fanining mazmun-mohiyati, vujudga kelishi va rivojlanishi bosqichlari, iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, iqtisodiy qonunlar va tamoyillarini o'rgatish hamda ularni uy xo'jaliklari, mikrofirmalar va korxonalar faoliyatida tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilish. Fanning vazifasi – Fan va ta'lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovatsiyalarni ta'lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimidan keng foydalanish.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)	
II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:	Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)
M1	Mikroiqtisodiyot fanining predmeti, maqsadi va vazifalari Iqtisodiy omillarning cheklanganligi. Cheklangan omillarni taqsimlash. Iqtisodiy omillarni taqsimlashda narxlarning ahamiyati. Mikroiqtisodiyot fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Ijoiy mikroiqtisodiyot. Normativ mikroiqtisodiyot. Mikroiqtisodiyot obyekti. Mikroiqtisodiyot subyektlari. Mikroiqtisodiyotning tadqiqot usullari. Mikroiqtisodiyot modellar.
M2	Iqtisodiy bazis tushunchalar Iqtisodiy ehtiyoj. Real ehtiyoj. Noreal ehtiyoj. Iqtisodiy ne'matlar. Bir-birini o'zini bosuvchi ne'matlar. Iqtisodiy resurslar (ishlab chiqarish omillari). Tadbirkorlik qobiliyati. Ishlab chiqarish imkoniyatlari va ulardan foydalanish. Pozitiv va normativ tahlil. Tovarlar oqimi modeli. Kichik doiraviy aylanish. Chekli transformatsiya koeffitsienti.

M3	Talab va taklif tahlili asoslari Talab tushunchasi. Talab egri chizig'i. Talab funksiyasi. Bir omilli va ko'p omilli talab funksiyalari. Talabga ta'sir qiluvchi omillar. Talab miqdorining o'zgarishi. Talabning o'zgarishi. Taklif va taklif miqdori. Taklif egri chizig'i. Taklif funksiyasi. Bir omilli va ko'p omilli taklif funksiyalari. Taklifga ta'sir qiluvchi omillar. Taklif miqdorining o'zgarishi. Taklifning o'zgarishi. Talab va taklif qonunlari.
M4	Bozor muvozanati. Maksimal va minimal narxlar Muvozanat tushunchasi. Bozor muvozanati. Muvozanatli narx. Muvozanatli mahsulot miqdori. Muvozanat nuqtasi. Bozorning muvozanatli holatini tiklash xususiyati. Bozor muvozanatining o'zgarishi va unga ta'sir qiluvchi omillar. Narxga ko'ra bozorning muvozanatini ta'minlash modeli. Miqdorga ko'ra bozorning muvozanatini ta'minlash modeli (Valras modeli, Marshall modeli, to'rsimon model).
M5	Talab va taklif elastikligi Elastiklik tushunchasi. Elastiklik koeffitsienti. Talabni narxga ko'ra elastikligi. Talab funksiyasi uchun elastiklik koeffitsientini hisoblash. Yoysimon elastiklik. Elastik va elastik bo'lmagan talab. Absolyut elastik va absolyut elastik bo'lmagan talab. Talab elastikligiga ta'sir qiluvchi omillar. Talabning iste'molchi daromadiga ko'ra elastikligi. Kesishgan talab elastikligi. Kesishgan talab elastikligi koeffitsientini hisoblash. Normal tovarlar. Past toifali, oliy toifali va birlamchi ehtiyoj tovarlar. Engel chiziqlari. Elastiklik nazariyasining amalda qo'llanilishi. Sotuvchi daromadini talab elastikligiga ko'ra tahlil qilish.
M6	Iste'molchi tanlovi nazariyasi Iste'molchilar. Iste'molchilarning ortiqchiligi. Iste'molchi ortiqchiligi o'lchashda talab egri chizig'idan foydalanish. Iste'mol nazariyasida ne'mat tushunchasi. Iste'molchi tanloviga ta'sir qiluvchi omillar. Naflik tushunchasi. Iste'molchi ehtiyojini qondirish darajasi. Naflik funksiyasi. Umumiy naflik, chekli naflik, chekli naflikning kamayish qonuni. Befarqlik egri chizig'i. Befarqlik chiziqlari kartasi va uning xususiyatlari. Chekli almashtirish normasi. Budget chegarasi va uning o'zgarishi. Budget tenglamasi. Budget chizig'i. Budget chizig'i yotliqlik burchagi. Iste'molchi tanlovi masalasi. Naflikni maksimalashtirish. Iste'molchi tanlovi masalasi yechilishini grafik yordamida tahlil qilish. Iste'molchi muvozanati. Iste'molchilarning muvozanat shartlari.
M7	Daromad samarasi va almashtirish samarasi "Daromad-iste'mol" chizig'i. Normativ va past toifali tovarlar uchun Engel chiziqlari. "Narx-iste'mol" chizig'i. Normal va Giffen tovarlari uchun talab chizig'i. Normal tovar uchun daromad samarasi va almashtirish samarasi, umumiy samara. Past toifali tovarlar uchun daromad samarasi va

	almashtirish samarasi. Almashtirish samarasini va daromad samarasini amalda qo'llash. Past toifali tovarlar. O'mini bosuvchi va to'ldiruvchi tovarlar. Bozor va tavakkalchilik Noaniqlik va tavakkalchilik. Ehtimollik tushunchasi. Ehtimolning turlari. Noaniqlik sharoitida tanlash. Tavakkalchilikning vujudga kelish sabablari. Tavakkalchilik o'lchovi. Kutiladigan miqdor. Chetlanish. Tavakkalchilikka bo'lgan munosabat. Tavakkalchilikka moyillik. Tavakkalchilikka moyil bo'lmagan holat. Tavakkalchilikka befarqlik. Tavakkalchilikni pasaytirish yo'llari. Korxonalarning faoliyat sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlar turini kengaytirish (diversifikatsiyasi). Sug'urta qilish. Tavakkalchilikni qo'shish. Tavakkalchilikni taqsimlash. Assimetrik axborotlashgan bozor. Mahsulot sifati noaniqligi. Ma'naviy tavakkalchilik. Bozordagi assimetrik axborotlarni yo'qotish yo'llari. Bozor signallari. Auktsonlar. Olib sotarlik va uni iqtisodiyotdagi o'rni.	
M8	Ishlab chiqarish nazariyasi Ishlab chiqarish tushunchasi. Ishlab chiqarish texnologiyasi. Ishlab chiqarish omillari va ularning turlari. Ishlab chiqarish funktsiyasi tushunchasi. Izokvanta tushunchasi. Izokvantalar kartasi va uning xususiyatlari. Izokvantaning yotliqlik burchagi. Qisqa va uzoq muddatlardagi ishlab chiqarish. Bir o'zgaruvchan omil (mehnat) asosida ishlab chiqarishni tashkil etish. O'zgaruvchi omilning yalpi o'rtacha, chekli mahsulotlari va ular o'rtasidagi bog'liqlik. Kapitalning chekli mahsuloti. Mehnatning chekli mahsuloti. Ishlab chiqarish omillari chekli mahsulotlarining kamayish qonuni. Ishlab chiqarish omillarining o'zaro almashuvi. Chekli texnologik almashirish normasi. Izokosta tushunchasi. Izokosta tenglamasi. Ishlab chiqarish omillari sarfini minimallashtirish.	
M9	Ishlab chiqarish xarajatlari Xarajatlar tushunchasi. Muqobil xarajatlar. Umumiy daromad, umumiy xarajat va foyda. Buxgalteriya foydasi va iqtisodiy foyda. Ishlab chiqarish va xarajatlar. Ishlab chiqarish funktsiyasi. Ishlab chiqarish funktsiyasi va umumiy xarajat. Ishlab chiqarish jarayonidagi har qanday xarajatning chekli mahsuloti. Kamayib boruvchi chekli mahsulot. Umumiy xarajat egri chizig'i. Xarajatning turli o'lchovlari. Doimiy va o'zgaruvchi xarajatlar. O'rtacha va chekli xarajatlar. O'rtacha umumiy xarajat. O'rtacha doimiy xarajat. O'rtacha o'zgaruvchi xarajat. Xarajat egri chiziqlari va ularning shakllari. U-shaklidagi o'rtacha umumiy xarajat. Samarali hajm. Chekli xarajat va o'rtacha umumiy xarajat o'rtasidagi bog'liqlik. Qisqa muddatli va uzoq muddatli davrdagi xarajatlar. Qisqa muddatli va uzoq muddatli davrdagi o'rtacha umumiy xarajatlar o'rtasidagi bog'liqlik.	
M10	Raqobatlashgan va nomukammal bozorlardagi firmalar faoliyati Raqobat tushunchasi. Raqobatlashgan bozor. Raqobatlashgan bozorning	

	belgilari. Raqobatlashgan firmaning daromadi. Raqobatlashgan firmaning yalpi, O'rtacha va chekli daromadlari. Firma foydasi. Foydani maksimallashtirish va raqobatli firmaning taklif egri chizig'i. Chekli xarajatlar egri chizig'i va firmaning taklif hajmi haqidagi qarori. Raqobatlashgan bozorda taklif egri chizig'i. Qisqa muddatli davr: firmalarning doimiy soni va bozor taklifi. Uzoq muddatli davr: kirish va chiqish orqali bozor taklifi. Qisqa va uzoq muddatlarda talabdagi o'zgarishlar. O'rtacha uzoq muddatli xarajat va uning xususiyatlari. Tarmoqning muvozanat holati. Tarmoqning taklifi. Xarajatlari o'sayotgan tarmoqning taklif chizig'i. Xarajatlari o'zgarmas bo'lganda tarmoqning taklif chizig'i. Xarajatlari kamaygan tarmoqning taklif chizig'i. Tarmoqning kengayish mexanizmi. Firmaning samarali hajmi. Ishlab chiqarish ko'lam. Samarali ishlab chiqarish ko'lam. O'zgarmas samarali ishlab chiqarish ko'lam. Nomukammal bozor tushunchasi.	
M12	Raqobat va yakka hokimlik Monopoliya resurslari. Monopoliyaning o'ziga xos belgilari. Tabiiy monopoliya. Monopol bozorlarda ishlab chiqarish. Monopol bozorlarda narxlar. Monopol bozorlarda ishlab chiqarish va narxlar o'rnatishdagi qarorlar. Monopoliyalarda chekli daromad. Monopolist foydasi. Monopoliya foydani maksimallashtirish. Narx diskriminatsiyasi. Monopoliyaga qarshi qonunchilik. Davlatning monopoliyalarga qarshi siyosati: Sherman qonuni, Kleyton qonuni. Monopolistik raqobat tushunchasi. Monopolistik raqobat bozorining xususiyatlari. Turli mahsulotlar bilan raqobat. Qisqa muddatli davrdagi monopolistik raqobatdosh korxona. Uzoq muddatli muvozanat Monopolistik raqobat va jamiyat farovonligi. Monopolistik raqobat bozorida tovar narxi va ishlab chiqarish hajmini aniqlash.	
M13	Mehnat bozori va korxonalarda mehnat resurslaridan foydalanish Bozor munosabatlari va mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari. Respublikada mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligini ta'minlash va uning ko'lamini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar. YOllanna ishchilarning optimal sonini aniqlash. Mehnatning chekli mahsuloti. Mehnatning chekli daromadligi. Mehnat qaytimi. Mehnat sig'imi. Mehnat samaradorligi. Mehnat unumdorligining kamayish qonuni. Mehnat resurslariga bo'lgan talab. Mehnat resurslari taklifi. Raqobatlashgan mehnat bozori va mehnat bozori muvozanati. Mehnat qilish va dam olish o'rtasidagi bog'liqlik. Ish haqi o'sishining daromad olish vaqt bilan ishlash vaqti o'rtasidagi nisbatga ta'siri. Mehnat bozori monopsoniya bo'lgan hol. Ish haqi minimumi. Minimal ish haqi va muvozanat ish haqi o'rtasidagi farqlar va ularning oqibatlari. Mehnat bozoriga kasaba uyushmalarining ta'siri. Monopoliya shaklidagi mehnat bozori. Mehnat bozorida ikki tomonlama monopoliya. Ish haqi stavkalarining tabaqalashuvi.	

M14	Kapital qo'yilmalar va kapital bozori Asosiy va aylanma kapital mablag'lark. Ssuda foizi. Loyiha tushunchasi. Mamlakatni modernizatsiya qilishda investitsiyalar va ularning ahamiyati. YALpi investitsiyalash. Investitsiyani qoplash. Sof investitsiya tushunchasi. Chekli sof qoplash. CHEkli ichki qoplash. CHEkli qoplash normasi koeffitsienti. Uzoq muddatli oraliqdagi investitsiya. Jamg'arma va vaqt bo'yicha chekli tanlash normasi. Qiymatni diskontlash. Investitsiyani hisoblashdagi diskontlangan qiymat. Investitsiyaga talab. Investitsiyaga inflyatsiyaning ta'siri. Asosiy fondlarning joriy xarajatlari va istiqboldagidaromadini baholash. Hududiy investitsiya dasturlariga kirgan loyihalar va ularni moliyalashtirish manbalari. Ziyon miqdorini aniqlash. Ichki va tashqi investitsiya. investitsiya sohasidagi qaror qabul qilish mezon. Investitsiya samaradorligi. Obligatsiya qiymati va undan keladigan daromad. Muddatsiz obligatsiya. Yer bozori, yer taklifi, yer rentasi. Absolyut renta. Differensial renta. Yer narxi.	
	Korxonalar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish Transaksion harajatlari tushunchasi. Axborot qidirish harajati. Muzokara olib borish va shartnoma to'zish harajatlari. O'lish bilan bog'liq harajatlari. Mulk egasini himoya qilish va spesifikasiya harajatlari. Opportunistik harakatlari harajatlari. Kouz teoremasi. Tashqi samaralar yoki eksternalilar (externalites). Ijoiy va salbiy tashki samaraga ta'sir qilish. Ijtimoiy ne'mat. Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning roli.	
M15	Davlatning bozorga ta'sirini baholash va raqobatlashgan bozor samaradorligi Iste'molchi ortikchaligi. Ishlab chiqaruvchi ortikchaligi. Iste'molchi va ishlab chiqaruvchi ortikchaligidan foydalanish. Narx davlat tomonidan nazorat qilinganda elastik bo'lmagan talabdagi yo'qotishlar. Narx muvozanat narxidan yuqori belgilangandagi ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning yo'qotishlari. Minimal narx o'rnatilishi natijasidagi yo'qotishlar. Barqaror narxlarni ushlab turish. Narxni barqaror bo'lishini ta'minlash. Ishlab chiqarishni cheklash (ishlab chiqarish kvotasi). Solikni uzoq va qisqa muddatli ta'siri. Raqobatlashgan bozor samaradorligi.	
M16		
III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: Amaliy (A) Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.		
A 1	Mikroiqtisodiyot fanining predmeti, maqsadi va vazifalari	
A 2	Iqtisodiy bazis tushunchalar	
A 3	Talab va taklif tahlili asoslari	
A 4	Bozor muvozanati. Maksimal va minimal narxlar	
A 5	Talab va taklif elastikligi	
A 6	Iste'molchi tanlovi nazariyasi	
A 7	Daromad samarasi va almashtirish samarasi	
A 8	Bozor va tavakkalchilik	

A 9	Ishlab chiqarish nazariyasi
A 10	Ishlab chiqarish xarajatlari
A 11	Raqobatlashgan va nomukammal bozorlardagi firmalar faoliyati
A 12	Raqobat va yakka hokimlik
A 13	Mehnat bozori va korxonalarda mehnat resurslaridan foydalanish
A 14	Kapital qo'yilmalar va kapital bozori
A 15	Korxonalar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish
A 16	Davlatning bozorga ta'sirini baholash va raqobatlashgan bozor samaradorligi

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular
“Mikroiqtisodiyot” fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarining kalendar tematik rejas

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Bozor iqtisodiyotida talab va taklifning ahamiyati
2.	Ishlab chiqarish xarajatlari
3.	Aholi daromadlari
4.	Xususiy talab va bozor talabi
5.	Elastiklik koeffitsienti yordamida bozor talabini baholash
6.	Ishlab chiqarish hajmi samarasiga ko'ra firmaning optimal o'ichamini aniqlash
7.	Firma foydasini aniqlash va uni maksimallashtirish
8.	Raqobatlashgan monopol bozor, ustun jihatlari va kamchiliklari
9.	Iste'molchining bozordagi harakati
10.	Raqobatlashgan bozorda harakat qiluvchi firma daromadlari
11.	Bozor muvozanati va uning ahamiyati
12.	Talabning elastiklik turlari
13.	Budjet chegarasi va budjet chizig'i
14.	Doimiy va o'zgaruvchan xarajalar. Raqobatlashuvchi firmaning foydasi va daromadlari
15.	Raqobatlashgan bozorda firmaning muvozanati
16.	Firma va tarmoqning uzoq muddatli oraliqdagi muvozanati
17.	Tadbirkorlik shakllari
18.	Noaniqlik va tavakkalchilik
19.	Milliy hisobchilik tizimidagi asosiy institutsional sektorlar va hisoblar
20.	O'zbekiston Respublikasida YalMning ishlab chiqarish tarkibi tahlili
21.	O'zbekiston Respublikasida YalMning xarajatlarga ko'ra tahlili
22.	O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining. makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili
23.	Mikroiqtisodiy ayniyatlar
24.	Nominal va real YalM
25.	Tabiiy ishsizlik nazariyasi
26.	Inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari

27.	Inflyatsiyaning yuzaga kelish sabablari va rivojlanish omillari
28.	Inflyatsiya va aksinflatsiya siyosati
29.	O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi inflyatsiya jarayonlari tahlili
30.	Fillips egri chizig'i. Ihsizlik va inflyatsiya o'rtasidagi qisqa davrdagi va uzoq davrdagi aloqadorlik
31.	Yalpi talab-yalpi taklif modelida mikroiqtsodiy muvozanat
32.	Mikroiqtsodiy muvozanatning klassik nazariyasi
33.	Mikroiqtsodiy muvozanatning keynscha nazariyasi
34.	Iste'mol funksiyasi. Mikroiqtsodiy tahlilda uni qo'llash imkoniyatlari
35.	Jamg'arish va investitsiya funksiyalari
36.	Investitsiyaga talab funksiyasi. Akselerator modeli
37.	Tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanat. IS egri chizig'i
38.	Keyns nazariyasida pulga bo'lgan talab
39.	Tovar ishlab chiqarishning mohiyati asosiy shart-sharoitlari va turlari.

“Mikroiqtisodiyot” fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari fanning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada iqtisodiy bilim ko'nikma hamda bilimlarni shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, mazkur fanning iqtisodiy qonunlar, kategoriyalar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiy tizimlar va ularni amal qilishi haqidagi muammolarni obyektiv tarzda ochib berish ko'zda tutiladi. Keltirilgan mavzular bo'yicha talabalar olib borayotgan tadqiqotlar, milliy iqtisodiyotning dolzarb muammolari, shuningdek, uy xo'jaliklari, mikrofirmalar va korxonalar faoliyatiga qaratilib talabalar tomonidan amaliy ishlashni talab etib, bu hol ularda mikroiqtsodiyot amaliyotida amaliy ko'nikmalarni, to'g'ri iqtisodiy fikirlashni shakllanishiga sabab bo'ladi. Bu holat **mustaqil ta'limda** nazarda tutilgan mavzular doirasida talabalar ish olib borishadi. Fan bo'yicha mustaqil ta'limda talabalar yuqorida keltirilgan mavzulardan tashqari o'z xohishlariga ko'ra boshqa mavzudagi muammolarni ochib berish imkoniyatiga ega. Fan bo'yicha tavsiya etilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida keltirilgan.

1. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Mikroiqtsodiyot fanning mohiyati va mazmuni, nazariy asoslari, uy xo'jaliklari, mikrofirmalar va korxonalar faoliyatini tahlil qilib, talab va taklif qonunining amal qilishi va rivojlanishi, mikroiqtsodiy ko'rsatkichlar va ularning mohiyati; iqtisodiy jarayonlarning amal qilish xususiyatlari haqida **tasavvur va bilimga ega bo'lishi**;
- Iqtisodiy qonunlarni, ilmiy tushunchalarni (kategoriyalarni), iqtisodiy muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi**;
- Talaba uy xo'jaliklari, kichik firma va korxonalar faoliyatiga oid iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish, iqtisodiy muammolarini hal etish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar to'plash va ularidan foydalanish **malakasiga ega bo'lishi kerak**.

2.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • elektron materiallar • keys-texnologiyalar • vizual, muammoli, mualliflik ma'ruzalari, ikki tomonlama tahlil, Insert, klaster, «Venna», sinkveyn va boshqalardan foydalanish
3.	VII. Kreditni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish.

Asosiy adabiyotlar:

1. B.T. Salimov, M.S. Yusupov, B.B. Salimov. Mikroiqtsodiyot. Darslik. –T.: “Iqtisodiyot”, 2019, - 270 b.
2. B.T. Salimov, M.S. Yusupov. Mikroiqtsodiyot-2. Darslik. –T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi», 2021 – 296 b.
3. Salimov B.T., Mustafakulov Sh.I., Yuldashev G.T., Sultanov B.T. “Mikroiqtisodiyot”. Masalalar to'plami. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018-yil. - 206 bet.
4. Б.Т. Салимов, М.С. Юсупов, А.И. Ишназаров. Микроиктисодиёт-2. Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисодиёт, 2019, - 198 б.

Qo'shimcha adabiyotlar:


1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2023. – 46 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni. Toshkent sh., 2023-yil 11-sentabr, www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi PF-60-sonli Farmoni.
4. Tojiboyeva D. “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan To'ldirilgan, 2-nashri. O'quv qo'llanmasi. TMI, T.:2005, 4358 bet.
5. Шодмонов Ш.Ш., Мухаммедов М.М., Камилова Н.А. Экономическая теория. Учебник для бакалавров – Т.: “Иқтисодиёт - молия” 2021. - 452

Axborot manbalari (saytlar):

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. Stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari
3. www.economist.com

4. www.worlddeconomics.com
5. www.tradingeconomics.com
6. http://grad-schools.usnews.rankingsandreviews.com/best-graduate-schools/top-humanities-schools/economics-rankings
7. www.ereport.ru - Obzornaya informatsiya po mirovoy ekonomike
Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi SamDU Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024-yil "24" avgustdagi 1 -son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
Fan/modul uchun mas'ullar:
1. S.B.Sharipov – Sharof Rashidov nomidagi SamDU Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti, "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori.
Taqrirlashchilar:
1. B.U.Bozorov – SamDU, "Inson resurslarini boshqarish" kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi (ichki).
2. Sh.A.Sultonov – SamDSI, "Real iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi (tashqi).

Universitetning 2024-yil 16-avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:



Rais Arabov N.U.

Kafedra mudiri:

Institut direktori:

Sh.D.Djurakulov

Sh.Rashidov nomidagi
SamDU O'quv ishlari bo'yicha
1-prorrektor:



A.S.Soleyev

Sharof Rashidov nomidagi SamDU Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi dotsenti, mas'ullar S.B.Sharipov va I.X.Nasimovlar tomonlaridan tuzilgan "Mikroiqtisodiyot" fan dasturiga


TAQRIZ

Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotining taraqqiy etishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, salohiyatli va malakali kadrlarni tayyorlash muhim hisoblanadi. Shu boisdan olgan mamlakatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor berib kelmoqda. Hozirgi zamon talabiga mos, raqobatga bardosh bera oladigan, yuqori bilim va saviyaga ega bo'lgan sifatli va malakali kadrlar tayyorlash hamda talabalarga mikroiqtisodiyotning mohiyati, maqsadi va vazifalarini, mikroiqtisodiy bazis tushunchalar, talab va taklif qonuni, raqobat, narx belgilash tamoyillari to'g'risida tegishli tasavvurga ega bo'lishlari lozim. O'qituvchining dars jarayonidagi asosiy vazifasi talabaning o'qish jarayonidagi o'zlashtirish qobiliyatini oshirish, talabada innovatsiyalarni ta'lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimidan keng foydalanishni ham nazariy, ham amaliy tomonlarini, iqtisodiyot sub'ektlarning faoliyatini o'rganish usullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga amaliy yordam beradi.

Shunday ekan, "Mikroiqtisodiyot" fanini o'rganishda qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodlarini qo'llagan holda, o'quv jarayonlarini takomillashtirish nazarda tutilgan. Talabaning ushbu fanni mukammal o'rganib olishi va olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi uchun qo'yilgan talablar ushbu dasturda o'z aksini topgan.

Mazkur "Mikroiqtisodiyot" fani dasturi o'quv rejaga mos ravishda tuzilgan bo'lib, unda ma'ruza, amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlari mavzularini qanday tarzda o'tish batafsil yoritib berilgan. Ma'ruza va amaliy darslarda uy xo'jaliklari, mikro firma va korxonalar faoliyatini tahlil qilib, o'rganish usullari batafsil yoritib berilgan.

Xulosa qilib aytganda, "Mikroiqtisodiyot" fanidan tuzilgan fan dasturi kafedra muhokamasida ma'qullanib, ushbu institutning o'quv uslubiy kengashida muhokama qilinib o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya etilgan.



SamDU "Inson resurslarini boshqarish"

kafedrasi dotsenti, i.f.n. Bozorov B.U.